

## TA'LIM JARAYONIDA GENDER TENGLIK MASALASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-306-309>

**Muladjanova Gulchexraxon Abidjanovna**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

*Ushu maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim jarayoni, ijtimoiy hayot va o'quvchi yoshlarning kasb-hunar egallashi bilan bog'liq masalalarda gender tengligi muammolari va ularning yechimlari, shuningdek, bu soxada Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar yuzasidan so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Gender tenglik, ta'limda gender tenglik muammosi, ijtimoiy-siyosiy hayonda tenglik, gender stereotiplar.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассматриваются проблемы гендерного равенства в Республике Узбекистан в вопросах, касающихся образовательного процесса, социальной жизни и профессионального развития учащихся, а также пути их решения и реформы, проводимые в этой области в нашей Республике.*

**Ключевые слова:** *гендерное равенство, проблема гендерного равенства в образовании, равенство в социально-политической жизни, гендерные стереотипы.*

### ABSTRACT

*This article discusses the problems of gender equality in the Republic of Uzbekistan in matters related to the educational process, social life and professional development of students and their solutions, as well as the reforms being implemented in this area in our Republic.*

**Keywords:** *Gender equality, the problem of gender equality in education, equality in socio-political life, gender stereotypes.*

XX - XXI asrlarda jamiyatning dolzarb muammolaridan biri sifatida gender tenglik masalalarini qayta ko'rib chiqish va uni amaliy o'zgartirish masalalari katta o'rin egallagan. Ushbu o'zgarishlarning asosiy yo'nalishi ayollarning mehnat va ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida tutgan o'rni va roliga yangicha qarashda, har ikkala jins vakillarining motivlari, manfaatlari, pozitsiyalari va faoliyatining uyg'unligi g'oyasidadir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda gender tengsizligini bartaraf etish bo'yicha ishlar faollashdi. Gender siyosati muammolari, gender tadqiqotlari, ayniqsa, "Ayollar muammosi" bilan bog'liq masalalar rasmiy darajada davlat siyosatining ustuvor masalalari qatoriga kiritilgan. Xotin-qizlarning mavqeyini oshirish, ayniqsa, ularning huquqlarini qonuniy hujjatlari orqali himoya qilish va kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Ta'limda gender tengligi —bu ta'lim sohasida erkak va ayol o'rtasidagi imkoniyatlar, huquqlar va resurslarga teng kirish imkoniyatidir. Gender tengligi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, chunki ta'lim — har bir insonning shaxsiy va professional o'sishi uchun asosiy poydevor.

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda ta’limda gender tengligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida qiz va o‘g‘il bolalar soni maktab yoshidagi bolalar orasida nisbatan teng taqsimlangan: o‘quvchilarning taxminan 48,7 foizi qiz bolalar, 51,3 foizi esa o‘g‘il bolalardir. Bu ko‘rsatkichlar maktab ta’limi bosqichida gender tengligi yaqqol mavjudligini bildiradi. Ammo yuqori sinflarga, ayniqsa 10-11 sinflarga kelib, qizlarning ishtirok darajasi asta-sekin pasayadi. Masalan, 11-sinf bitiruvchilari orasida qizlarning ulushi o‘g‘il bolalarnikidan ancha kamroq bo‘lishi ijtimoiy stereotiplar, oilaviy sharoitlar va iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq.

Zamonaviy o‘smirlarning kasb tanlash muammosini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, maktab bitiruvchilari gender xususiyatlarini hisobga olgan holda keyingi kasbiy yo‘nalishlarni belgilash va rejalashtirishda kattalarning yordamiga muhtoj. Bu kabi holatda mahalla, oila va ta’lim muassasining hamkorligi yetakchi o‘rinni egallaydi. Sandra Bemning “Erkaklik, ayollik va shaxsning gender turi” usuli, J. Gollandning shaxsiyatning professional turini aniqlash uchun o‘zgartirilgan usuli, E. A. Klimov tomonidan differensial diagnostika so‘rovnomasi asosida olingan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda maktab o‘quvchilarining aniq kasbiy rejasi yo‘q, ularning aksariyati (68%) kasb tanlashda mustaqillik darajasi pastligini ko‘rsatmoqda. Natijalarga ko‘ra, yigitlar orasida mehnatni kasbiy taqsimlash masalalarida gender stereotiplariga amal qilish darajasi 70,8 foizni tashkil etadi. Qizlar mehnat taqsimoti bo‘yicha ko‘proq liberal g‘oyalarga ega: ular 42,3 foiz kasblarni “erkak” va “ayol” ga taqsimlashdagi stereotiplarni hozirda ahamiyatsiz deb hisoblaydi.

Tadqiqot jarayonida gender xususiyatlar asosida o‘quvchilarning kasb tanlashdagi afzalliklari aniqlanib olinmoqda. Gender ijtimoiylashuv maktab o‘quvchilarining rivojlanishi va moslashuvi jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsiy va kasbiy sohalarida o‘zini o‘zi belgilashga yordam beradi. O‘smirlarning gender ijtimoiylashuvini hisobga olish bolaning kasb tanlash istiqbollari amalga oshirish ichki tayyorlikni shakllantirishga yordam beradi. Bunda gender yondashuv asosida o‘quvchi-yoshlarni kasbiy yo‘naltirishga qaratilgan intensivlashgan didaktik ta’minotlarni ta’lim jarayonida tadbiq qilish bilan izohlash mumkin. Bunda yoshlarni, asosan, kichikligidan boshlab kitobga oshno qilish, o‘z fikrini erkin bayon qila olish imkoniyatini berish hamda ularni tinglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, qizlarga aslida ta’lim olishning teng bo‘lmaganligi - yaxshi tasdiqlangan haqiqat. Biroq, kelajak o‘qituvchilari sifatida biz buni maktabda, tengdoshlar orasida, o‘quv dasturlar, darsliklar yaratayotganda gender tengsizligi, gender tengligini ham muhokoma qilishimiz lozim. Gender bo‘yicha adolatli ta’lim olish xavotirlari nainki maktabda balki, undan tashqarida uy, jamiyatdagi kuchlar orasida ham kuzatish mumkin. Eng avvalo kichik xavotirni maktabdagi tartib-intizom jarayonlarida ko‘rsa bo‘ladi. Odatda bu intizom o‘g‘illarda alohida, qizlarda alohida joriy etiladi. Eng birinchida maktab formasi bu ikki jins vakiliga ikki xilda taqsimlanadi. Keyingisida qizlar ko‘proq jamoaviy tadbirlarda ishtirok

etishsa, o'g'il bolalar yakka tartibda ham jalb qilinadi. Gender muammolarini maktabda bartaraf etish xususida gap borar ekan, bunda maktab o'quvchilari bilan ixtiyoriy ravishda ochiq so'zlashuv sessiyalariga qatnashish, muzokarlarda do'stona ishtirok etish, guruh ishi, aqliy xujum, audio-vizual topshiriqlar maktabda – o'qituvchilar, psixologlar, maslahatchilar, uyda - ota-ona, qarindosh, aka-ukalar, jamiyatda - NNT, maxalla oqsoqollari o'rtasida olib borilishi yaxshi natija beradi. Umuman olganda bu kursda genderni asoslangan amaliyot ko'rib chiqiladi.

Gender tenglik mavzusi ko'p yillar davomida muhokamalar, tortishuvlar, munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Afsuski, o'tgan o'n-yigirma yillar davomida gender tenglik masalasi, ayollarning muammolari, orzu-umidlari, jamiyatdagi roli va o'rni faqat tilda hamda hisobotlarda yozilib kelinardi. Bu odatiy holatga ham aylanib ulgurgandi, desak ham bo'ladi. Ayollarimiz, ayniqsa, qishloqdagi xotin-qizlarimizni asosan paxta dalalarida — mehnatda ko'rish mumkin edi. Xotin-qizlarimizga faqat uy yumushlari, ro'zg'or yurituvchi, farzand tarbiyalovchi sifatida qaralib, ayollarga munosabat shu bilan cheklanib qolinardi. Boshqaruvda yoki rahbarlikka ayollarni tayinlash o'ta murakkab masala edi. Nihoyat mazkur sohada muhim va dolzarb qadam qo'yilmoqda. Aniqrog'i, xotin-qizlar va erkaklarning huquq va imkoniyatlari tengligi Konstitutsiyaning 46-moddasida aniq qilib belgilanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019 yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqida shunday degan edi: “...bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak”. Ya'ni so'z nafaqat ayollarni ijtimoiy himoya qilish, balki xotin-qizlarning alohida maqomi va ularga nisbatan hurmatini tiklash haqida bormoqda.

Mana bir necha yildirki, ayollarimiz jamiyatning barcha sohalarida faol ishtirok etib, davlat rivojlanishiga o'z hissasini qo'shib kelayotganining guvohi bo'lib turibmiz. Bugun O'zbekistonda gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Jumladan, o'tgan yilda 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi. Bundan tashqari, Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya, Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi.

Ayollarning ta'lim olishdagi ishtirokini oshirish nafaqat ularning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqaradi, balki iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Ta'lim orqali xotin-qizlar bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab, jamiyatdagi turli rol va vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'ladilar. Shu bois, yurtimizda davlat va jamiyat tomonidan qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, gender stereotiplarini bartaraf etish va adolatli ta'lim muhitini yaratish bo'yicha doimiy chora-tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda. Bu nafaqat tenglik tamoyillariga sodiqlik, balki kelajak avlod uchun kuchli poydevor yaratish demakdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son qarori.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – Toshkent O‘zbekiston”, 2021. – 250 b.
3. Nogayeva Aynur Muxanbetiyarovna, Janna Mergenjanovna Shupanova. «Роль женщин в сфере образования, науки и обществе стран Центральной Азии.» (2016). 4. <https://gender.stat.uz>.
4. <https://www.unesco.org/en/gender> equality/education.